

TABIATI NOZIK, TALABLARI YUKSAK SAODAT QOBULOVANING HAYOT YO'LIGA CHIZGILAR

Ruxshona Atkiyoyeva

Farg'ona Davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti

"Musiqiy ta'lim" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'z davrining mohir qo'shiqchilaridan biri bo'lgan, opera xonandasi (lirik-koloraturali soprano), O'zbekiston va SSSR xalq artisti Saodat Qobulovanning hayoti mobaynida bosib o'tgan ijod yo'li haqida fikrlar keltiriladi. Qolaversa, bugungi kunda ushbu ijodkorning nomini bardavom qilish maqsadida qilinayotgan say'i harakatlar atroflicha ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *opera xonandasi, lirik-koloraturali soprano, tembr, ovoz, O'zbektelefilm, vokal, milliy xonandalik*

Saodat Qobulova (15-dekabr 1925, Marg'ilon — 10-dekabr 2007, Toshkent), O'zbekistonlik ashulachi, opera xonandasi (lirik-koloraturali soprano). O'zbekiston xalq artisti (1957). 1959-yil SSSR xalq artisti unvoniga sazovor bo'lgan.

Moskvadagi O'zbek opera studiyasi (1954) hamda Toshkent konservatoriyasini (1969) tugatgan. Qobulova milliy xonandalik san'ati va musiqa merosi namunalarini, asosan, Jo'raxon Sultonov, To'xtasin Jalilov, X.To'xtasinov, E.Barayevlardan o'zlashtirgan.

Qobulova go'zal tembrli, yorqin va shirador, jilodor va ta'sirchan ovozga ega; o'zbek xonadalik san'atida yangi davr boshlab berganlardan — uning ijro uslubida Yevropa xonandalik xususiyatlari milliy ashulachilik yo'llari bilan uyg'unlashib ketgan. Qobulova san'atdagi faoliyatini Marg'ilon kolxoz-sovxozi teatridan boshlagan (1939). Muqimiy teatrida (1941-48) Qamar, Mohim, Nurxon (S.Abdulla; T.Jalilov musiqasi, "Tohir va Zuhra"; K.Yashin, "Nurxon") rollarini ijro etgan;

asosan, konsert ijrochiligi bilan shug'ullangan. Ikkinchi jahon urushi yillarida harbiy qismlar, gospitallarda madaniy xizmat qilgan. 1954-86 yillarda Navoiy. teatri yakkaxon xonandasi. Qobulova ijodi ko'proq o'zbek operalarida



yaratgan Jamila, Layli (T.Sodiqov, R.Glier, "Layli va Majnun"), Zuhra (T.Jalilov, B.Brovsin, "Tohir va Zuhra"), Asal (T.Sodiqov, R.Glier, "Gulsara"), Huri (T.Sodiqov, B.Zeydman, Yu.Rajabiy, D.Zokirov, "Zaynab va Omon"), Dilorom (M.Ashrafiy, "Dilorom"), Oyxon (S.Yudakov, "Maysaraning ishi"), Sanobar (S.Boboyev, "Hamza"), Gulnor (R.Hamroyev, "Zulmatdan ziyo") kabi obrazlarida namoyon bo'ldi. Bular ichida Huri, Oyxon, ayniqsa, Dilorom partiyalari qo'shiqchilik ijodining cho'qqisi bo'lib, ham sahnaviy, ham vokal ijrosi jihatidan mukammalligi bilan ajralib turadi. U o'zbek opera xonandalaridan birinchilar qatori chet el mumtoz operalarida Leyla (J.Bize, "Marvarid izlovchilar"; o'zbek va rus tilida), Violetta, Jilda (J.Verdi, "Traviata", "Rigo-letto"), Madam Batterflyay (J.Puchchini, "ChioChio-san"), Rozina (J.Rossini, "Sevilya sartaroshi"), Mimi (J.Puchchini, "Bogema") va boshqa partiyalarning mohir ijrochisi sifatida ham tanilgan. Konsert ijrochiligi Qobulova ijodiy faoliyatining ajralmas qismini tashkil qiladi. Uning repertuaridan xalq ashulalari, o'zbek mumtoz musiqa namunalari ("Galdir", "Navro'z", "Bayot-1, 2, 3, 4, 5", "Saraxbori Oromijon", "Talqini Bayot", "Samarqand Ushshog'i", "Buxoro Irog'i", "Dugoh", o'zbek kompozitorlarining asarlari ("Dugonalar", "Davra qo'shig'i", S.Yudakov; "Bahor", T.Sodiqov; "Kelsa nogoh", M.Burhonov; "Kashmirda", M.Ashrafiy va boshqalar) asosiy o'rin olgan. D.Zokirovning "Ko'rmadim", "Ey sabo", "Bulbul", X.To'xtasinovning "Qora ko'zlar", "Aylagach", G'.Toshmatovning "Karvon keldi" va boshqa asarlarning birinchi ijrochisi. U, shuningdek, chet el klassik kompozitorlarining romanslari, Yevropa va Osiyo xalqlari (rus, ukrain, chex, tojik, ozarbayjon, arman, mo'g'ul, tay, hind va boshqalar)ning qo'shiqlarini ham ijro etgan. Qobulova 1972-yildan

hozirgi O'zbekiston davlat konservatoriyasida vokal sinfi pedagogi, professor (1986), kafedra mudiri (1988-97) sifatida ko'plab shogirdlar tarbiyalagan. Jahon yoshlari festivali (Moskva)ning laureati (1957). Ijrolari 2 gramplastinka, o'zbek radiosi fonotekasiga yozilgan, "O'zbektelefilm" studiyasi tomonidan Qobulova ijodiga bag'ishlangan 2 film ishlangan ("Saodat", "Saodat Qobulova kuylaydi", 1991). Osiyo, Yevropa, Amerika mamlakatlarida gastrolda bo'lgan. "Do'stlik" (1998), "Buyuk xizmatlari uchun" (2001) ordenlari bilan mukofotlangan.¹

Necha avlodning bolaligi Saodat Qobulovaning "Alla"sini eshitish bilan o'tgan. Xonanda ijro etgan "Dugoh", "Ko'ngil", «Qalamlar» esa hanuz muhabbat ahlining yurak so'zlari bo'lib yangrab kelmoqda. Saodatxon qo'llariga likopcha olib ochiq chehra bilan "Dugonalar"ni ayta boshlaganlarida esa xonadonlari, dala shiyponi, mehmonlarga yozilgan dasturxon atrofi bir-biridan go'zal, bir-biridan sho'x raqqosalar, xonandalar va san'at shaydolari - mehr-oqibatli dugonalar bilan jamuljam bo'lgan. Qo'shig'i, ijro texnikasi bilan barchani o'ziga maftun etgan bu san'atkor o'z uyida mehmondo'st mezbon, shirin so'zli pazanda sifatida ham kim kelsa oldiga to'kin dasturxon yozar, unutilmas daqiqalarni tilga olib, lazzatli taomi bilan mehmon qilardi. Osh damlab dasturxonni bezaganlari, shogirdlariga "menga qaramang, ritmga, nafas olishingizga ahamiyat bering", deb kuyunib mashq qilishlari, so'lim soy bo'yida aytgan kuylarini xirgoyi qilib yurishlarini ko'rganmiz. Xonandaning noyob ovozi, mukammal ijro texnikasi va artistlik mahoratiga maftun edik. Uning yana bir fazilati bor edi: u o'ta talabchan bo'lib, estetik didi nozik edi. Shu bois repertuari rang-barang, qo'shiqlari bir-biridan go'zal, ta'sirchan bo'lgan. Bu haqda Saodat opaning o'ziga aytganimda, "Mening emas, bastakorning, musiqaviy she'rlarni yozganlarning badiiy didiga qoyil qolish kerak", deb javob berardilar va so'zlarini qo'shiq qilib aytib, zarur deb bilgan so'zlariga urg'u berib, so'ngra ularni izohlardilar ham. Bir gal suhbatda: - Eshitib ko'ring, men hozir chizadigan manzarani tasavvur etib ko'ring. Soddagina misralarning o'zida ohang bordek. Ularda chuqur ma'no yashirin. O'tmishda sevikli yori visoliga yetisha olmagan oshiqning dardi bir-biriga mos kelgan kuy va so'zda ifodasini topgan, dedilar-da, qo'llaridagi kitobni chertib kuylay boshlaydilar.²

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, so'ngi yillarda o'tkazilib kelinayotgan ko'rik tanlovlari yangi o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy saviyasini yuksalishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aytish mumkinki, nafaqat Saodat Qobulova balki, ko'plab xalq tanigan san'atkor va ijodkorlarning ko'rik-tanlovlari o'tkazilishi yoshlarda mashhur hofizlarga aniqrog'i, o'zbek mumtoz

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T: 2005.

² Hamidulla Akbarov. "Ma'rifat" gazetasidan olingan.

musiqasining noyob ijrolariga nisbatan rag'bat paydo bo'ladi. Ishtiyoq va qiziqishni kuchaytiradi.

Ma'lumki ulug' donishmandlar ko'p hollarda taqlidga salbiy munosabatda bo'ladilar. Lekin afsuski san'atda, umuman hayotning deyarli barcha sohalarida taqlidsiz yashash imkonsizdir. Ulug' mutaffakir Jaloliddin Rumiy ta'birlari bilan aytganda taqlid dunyoning ustuni taqlidchilik "Muqallidlik" har qanday soha egasining zavoli. Ko'rik-tanlovlar tub mohiyati bilan mana shu jarayonni to'g'ri anglashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T; 2005.
2. Hamidulla Akbarov, "Ma'rifat" gazetasidan olingan.
3. O'.Rasulov ijodiy suhbat. O'ZMTRK "Madaniyat va ma'rifat". T: 2009.
4. R.S.Abdullayev. O'zbek mumtoz musiqasi. Toshkent "Yangi nashr". 2008.
5. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. O'zbek musiqasi tarixi o'quv qo'llanmasi.
6. B.X.Madrimov. O'zbek musiqa tarixi o'quv-uslubiy qo'llanmasi.
7. Achildieva, M. Xojimamatov, A.SHASHMAQOM SABOQLARI "NAVO" MAQOMI XUSUSIDA *International Journal for Innovative Engineering and Management Research (Vol.11 Issue01, Pakistan Hyderabad 2022) ISSN 2456-5083 55-58*
8. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE 249-253 bet.
9. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.
10. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
11. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
12. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 494-498.

13. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.
14. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.
15. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA " LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.
16. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33.
17. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.
18. Xojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.
19. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.
20. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafuz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
21. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
22. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). РЕЙНГОЛЬД ГЛИЭР ВА ТОЛИБЖОН СОДИҚОВНИНГ «ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН» ОПЕРАСИДА МАҚОМ ЙЎЛЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. *Science and innovation*, 1(C4), 23-28.
23. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari:" Navo" maqomi xususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01), 55-58.
24. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafuz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).

25. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., & Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9), 17-20.
26. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 302-308.
27. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).
28. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
29. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA "LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.
30. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.
31. Xojimamatov A. Atkiyoeva R. O'ZBEK MILLIY OPERALARINING TARIXIY AHAMIYATI VA ULARNING JAHON SAHNASIDA TUTGAN O'RNI Vol. 9 No. 1 (2023): "RUSSIAN" *ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ*
32. Achildiyeva M. The Role of Music in Forming the Artistic-Aesthetic Taste of Youth *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023 173-179*
33. Xojimamatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023 162-166*
34. Achildiyeva M. Atkiyoeva R. O'ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O'RNI VA AHAMIYATI *Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4384 11-14*
35. Xojimamatov A. Atkiyoeva R. "VODIY BULBULI" TAVAKKAL QODIROVNING IJODIY MEROSI BUGUNGI KUN NIGOHIDA *Journal of Innovation, Creativity and Art Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4287 4-7*
36. Mamaziyayev X. Atkiyoeva R. BOTIR ZOKIROV -MILLIY ESTRADANING MUSTAHKAM USTUNI *Journal of Innovation, Creativity and Art Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4287 8-12*